

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI HUZURIDAGI
DSC.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XAYITOV SHERBEK NAIMOVICH

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGI VA
FAROVONLIK DARAJASINI OSHIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора экономических наук (DSc)

Content of dissertation abstract of doctor of economical science (DSc)

Xayitov Sherbek Naimovich

Kambagʻallikni qisqartirish asosida aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirishning metodologiyasini takomillashtirish3

Хайитов Шербек Наимович

Совершенствование методологии повышения уровня занятости и благосостояния населения на основе сокращения бедности31

Khayitov Sherbek Naimovich

Improvement of the methodology for increasing employment and population welfare through poverty reduction.....61

Eʻlon qilingan ishlar roʻuxati

Список использованных работ

List of published work.....66

**G.V.PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT FILIALI HUZURIDAGI
DSC.22/30.12.2019.I.100.01 RAQAMLI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XAYITOV SHERBEK NAIMOVICH

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGI VA
FAROVONLIK DARAJASINI OSHIRISH METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2023.3.DSc/I.281 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (reu.uz) va «ZiyoNet» (www.ziynet.uz) axborot-ta'lim portalida joylashtirildi.

Ilmiy maslahatchi: **Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Arabov Nurali Uralovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xasanov Rustam Rabbimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tagayev Bezzod Ergashevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali huzuridagi DSc.22/30.12.2019.I.100.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100164, O'zbekiston Respublikasi, Tashkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shaxriobod ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz.

Dissertatsiya bilan G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, O'zbekiston Respublikasi, Tashkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shaxriobod ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi № ____ raqamli reestr bayonnomasi).

Abduraxmanov K.X.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, O'zFA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shakarov Z.G.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xudayberdiyev Z.Ya.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholining bandligi va farovonligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan global sa'y-harakatlar o'z navbatida ko'pgina yechimini kutayotgan muammolarga ham tayyor turish lozimligini ko'rsatmoqda. Jahon bankining 2024-yildagi hisobotiga ko'ra, dunyoning qariyb 700 million kishisi, yoki umumjahon aholisining 8,5%, o'ta qashshoq sharoitda, ya'ni kuniga 2,15 AQSh dollaridan kam daromad bilan yashamoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi taraqqiyot sur'atida kambag'allikni to'liq yo'qotish uchun yuz yildan ortiq vaqt kerak bo'lishi mumkin¹. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilda dunyoda ishsizlik darajasi 4,9% ni tashkil etadi, bu 2023-yildagi (5,0%)ga nisbatan bir oz pastroqdir. Biroq, bunga qaramasdan, ish o'rinlari tanqisligi sezilarli darajada qolmoqda: taxminan 402 million kishi ishlashni istaydi, lekin bu imkoniyatga ega emas². Global miqyosda taxminan 3,5 milliard kishi, yoki umumjahon aholisining 44,0%, kuniga 6,85 AQSh dollaridan kam daromad bilan yashaydi, bu o'rtacha yuqori daromadli mamlakatlar uchun kambag'allik chegarasiga to'g'ri keladi. 1990-yildan buyon, aholi soni o'sib borishiga qaramasdan, bu kambag'allik chegarasidan tashqarida yashovchi odamlar soni deyarli o'zgarmagan³.

Jahonda farovonlik va bandlikni ta'minlash hamda kambag'allikni qisqartirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida mazkur masalalarning nazariy-metodologik va uslubiy asoslarini takomillashtirishga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada muammoni inson-oila-jamiyat darajasida kompleks tadqiq etish, ijtimoiy-iqtisodiy-gender tenglikni ta'minlash hamda ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy faoliyatga ta'sir darajasini baholashning uslubiyatini takomillashtirish, maqsadli belgilarga ko'ra kambag'allik va uni qisqartirishning istiqbol parametrlarini ishlab chiqish kabi yo'nalishdagi mavzular muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida iqtisodiyot tarmoqlarini sifat jihatdan rivojlantirish barobarida ijtimoiy taraqqiyotga alohida e'tibor qaratilib, bu borada kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligi va farovonligini oshirish yuzasidan chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. "Samarali makroiqtisodiy siyosatni yuritish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik muhitini yaxshilash orqali mamlakatda kambag'allikni qisqartirish borasida maqbul davlat siyosatini amalga oshirish tizimini joriy etish"⁴ maqsadlari belgilangan. Bu maqsadlarni amalga oshirishda kambag'allikni qisqartirishga ko'ra aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish, "mahalla-tuman-mintaqa" darajasida iqtisodiy chora-tadbirlarni muvofiq holda amalga

¹ World Bank. *Poverty Reduction Strategy Sourcebook*. Washington, DC: World Bank, 2024. Available at: <https://documents.worldbank.org>.

² International Labour Organization. *Overcoming Poverty Through Social and Economic Transformation*. Geneva: ILO, 2024. Available at: <https://www.ilo.org>.

³ World Bank. *Global Economic Prospects 2024*. Washington, DC: World Bank, 2024. Available at: <https://www.worldbank.org>.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-son Farmoni.

oshirishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishdagi tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 12-iyundagi PF-93-son “Kambag‘allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik o‘rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”, 2021-yil 11-avgustdagi PF-6277-son “Kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish hamda kambag‘allik bilan kurashish ko‘lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2021-yil 3-dekabrda PQ-31-son “mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarga sharh. Jahonda gender muammolari, kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligining metodologik-uslubiy asoslari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar, jumladan quyidagi yetakchi universitetlar va ilmiy markazlar tomonidan olib borilmoqda: Oksford universiteti (Oxford University); Stokgolm iqtisodiy maktabi (Stockholm School of Economics); Leyden universiteti (Leiden University); Zalsburg universitetining Tadqiqot etikasi va kambag‘allik markazi (Center for Ethics and Poverty Research, CEPR, University of Salzburg); London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi (London School of Economics and Political Science, LSE); Butunrossiya mehnat ilmiy-tadqiqot instituti (Rossiya); G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali (O‘zbekiston).

Jahonda mehnat bozori va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida amalga oshirilgan tadqiqotlarda, jumladan quyidagi ilmiy natijalar asoslangan: kambag‘allik darajasini xalqaro darajada nisbatan kompleks baholashga asoslangan qiyosiy baholash yondashuvi ishlab chiqilgan (BMTning Statistik Komissiyasi); qashshoqlikni qisqartirish va o‘zaro bog‘liq jihatlarini muvofiqlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘ra yangi “kambag‘allik profili” asoslangan (Oksford universiteti); kambag‘allik muammolari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazishning “global-mintaqa” darajalari muvofiqligiga ko‘ra yangi yondashuv ishlab chiqilib, unga ko‘ra global miqyosda kambag‘allik darajasi to‘g‘risida “yanada ishonchli

javoblar” olish imkoniyatlari kengaytirilgan (Ab.Banerdji, Ester Dyuflo, Maykl Robert Kremer).

Bugungi kunda jahonda kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirish bo‘yicha, jumladan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: globallashtirish jarayonining chuqurlashishi va sun‘iy intellektning mehnat bozoriga ta‘siri tobora kuchayib borishiga ko‘ra kambag‘allikni qisqartirishning metodologik asoslarini takomillashtirish; kambag‘allik darajasini aniqlashda jarayon ishtirokchilari (oila, shaxs) imkoniyatlarini to‘laroq aks ettirish; kambag‘allikni qisqartirishda mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirishning uslubiyatini takomillashtirish; gender tenglikka ko‘ra kambag‘allikni qisqartirishning qo‘shimcha imkoniyatlarini asoslash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kambag‘allik konsepsiyasining mohiyati va tushunchasi, uni o‘rganishga doir nazariy-metodologik yondashuvlar hamda kambag‘allikka ta‘sir etuvchi omillar, uning ontologiyasi va oqibatlari mahalliy va xorijiy olimlar va mutaxassislarining ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etilgan. Kambag‘allik konsepsiyasi bo‘yicha ilmiy qarashlar birinchi marta iqtisodiy nazariyaning asoschisi A. Smit, T. Maltus, J. S. Mill, K. Marks, S. Kuznes asarlarida aks etgan.

Zamonaviy dunyoda kambag‘allik va aholi farovonligining iqtisodiy tabiati bo‘yicha muhim tahlillar Ch. But, S. Rountri, A. Sen, M. Desmond, R. Da Kosta Nunez, J. Sibruk, S. Lensli, M. Orshanski, G. Rum, M. Revellon, P. Taunsend kabi yirik xorijiy mutaxassislarining asarlarida, shuningdek, BMT tizimi xalqaro tashkilotlarining tahliliy hisobotlarida (XMT, MOT, YuNFPA, ESKATO, YuNISEF, OON Ayollar) o‘z ifodasini topgan.

Globallashtirish va integratsiya jarayonlarining jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga, xususan, kambag‘allik va tengsizlik darajasining dinamikasiga ta‘siri, shuningdek, kambag‘allikni bartaraf etish bo‘yicha tajribalar V.V. Antropov, M.G. Delyagin, D.Dollar, V.L. Inozemsev, A.Krey, Ye.G.Oleynikova, Ye.Ye.Rumyanseva, J.Stiglis, Yu.V.Shishkov, Ye.G.Yasin va boshqalarning asarlarida yoritilgan.

Kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi va farovonligini oshirishga doir zamonaviy muammolar O‘zbekiston olimlari – akademik K.X. Abduraxmanov,⁵ akademik S.S. Gulyamov,⁶ professorlar B.X. Umurzakov,⁷ G.K. Abduraxmanova,⁸ N.U. Arabov,⁹ N.K. Zokirova,¹⁰ A.B. Irmatova,¹¹ B.A. Islamov,¹²

⁵ Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект – основа устойчивого развития экономики. – Москва: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г.В. Плеханова», 2023. -432 с.

⁶ Гулямов С.С., Шермухамедов А.Т. Цифровизация образования в Узбекистане. Материалы научно-практического семинара. 2019. С. 169-171

⁷ Умурзаков Б.Х. Теоретические и практические аспекты развития сферы малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан. Монография. – Т.: «Iqtisodiyot». 2011.

⁸ Abdurakhmanova G.K. Incentives to create new jobs in small business in Uzbekistan. Cambridge Journal of Education. and Science 2020. №13.

⁹ Арабов Н.У., Ирматова А.Б. Меҳнат бозори ривожланишининг таҳлили. Монография. 2021.

¹⁰ Зокирова Н.К. Инновационные рабочие места как эффективная и достойная форма занятости в современных условиях. Журнал «Потенциал современной науки». №2. 2022. С. 60-67

¹¹ Арабов Н.У., Ирматова А.Б. Меҳнат бозори ривожланишининг таҳлили. Монография. 2021.

¹² Исламов Б.А. Об альтернативных теоретических и методологических подходах к исследованию системной трансформации. Современная Наука: Актуальные Проблемы И Пути Их Решения. №13. 2014. С. 46-52

Sh.D. Kudbiyev,¹³ X.X. Mamadaliyeva,¹⁴ B.Sh. Mahkamov,¹⁵ N. Mahmudov,¹⁶ Sh.X. Nazarov,¹⁷ D.A. Nasimov, N.X. Rahimova, R.R. Hasanov, O.X. Hamidov, Z.Ya. Xudoyberdiyev¹⁸ va boshqalarning ishlarida yoritilgan.

Shunga qaramay, bir tomondan, kambag'allikni (daromad, iste'mol va boshqa jihatlardan) o'rganishga, ikkinchi tomondan, mehnat bozorini tadqiq qilishga bag'ishlangan ko'plab nashrlar mavjud bo'lishiga qaramay, mehnat munosabatlari tizimidagi kambag'allik fenomeni barcha murakkabligi va xilma-xilligi bilan o'rganilgan to'liq kompleks tadqiqotlar haligacha olib borilmaganligini ta'kidlash lozim. Kambag'allik muammosining eng kam tadqiq etilgan jihatlaridan biri mehnat bozori (ayniqsa, mehnatning ikkinchi darajali bozori) segmentatsiyasi va rivojlanishi, shuningdek, bandlik tizimlarining rivojlanish spesifikasi bilan aniqlanadigan kambag'allik munosabatlari o'rganish hisoblanadi.

Shunday qilib, mehnat bozori munosabatlari nuqtayi nazaridan, ya'ni kambag'allik muammosiga qayta ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan kengroq yondashuv zarurati obyektiv ravishda paydo bo'ldi. Shuningdek, mehnatga layoqatli aholining kambag'allar toifasiga "kirishini" aniqlovchi omillarning chuqur o'zaro bog'liqligini tushunish zarurati yuzaga keldi. Yuqorida aytilganlar ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalarini, shuningdek, ishning mantig'ini aniqladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-5421033210-sonli "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining metodologik asoslari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi kambag'allikni qisqartirish asosida aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kambag'allikni baholashning zamonaviy nazariy-konsepsiyalari va mutlaq kambag'allik chegarasining metodologik asoslari va amaliy yo'naltirishlarini tanqidiy o'rganish;

kambag'allik chegarasini aniqlashning subyektiv va obyektivligiga ko'ra kambag'allik chegarasini tasniflash va qurish yondashuvini ko'rib chiqish;

¹³ Кудбиев Ш.Д. Роль МОТ в формировании и регулирование рынка труда молодежи. Collection of scientific papers on materials VIII International Scientific Conference. Том Part 1. 2019. С. 50-55

¹⁴ Мамадалиева Х.Х. Анализ тенденций демографического развития Республики Узбекистан. Журнал Большая Евразия: Развитие, безопасность, сотрудничество. 2022. С. 1111-1114

¹⁵ Махкамов Б.Ш. Инновационные процессы как фактор экономического роста Республики Узбекистан. Вопросы экономических наук. №5 (27) 2007. С. 102.

¹⁶ Махмудов, Н., Азимова, Л., & Авазов, Н. (2021). Вопросы повышения макроэкономической стабильности и инвестиционной активности в Узбекистане. Экономика и Образование, (1). 2021

¹⁷ Назаров Ш.Х. Оценка асимметрии в развитии регионов Узбекистана. Экономический бюллетень научно-исследовательского экономического института министерства экономики Республики Беларусь. № 11 (269). 2019. С. 43-50

¹⁸ Худойбердиев З.Я. ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси. Ўқув қўлланма. «ILMZYUO» 2016

kambag'allik, bandlik va aholi farovonligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishning uslubiy asoslarini tadqiq etish hamda hozirgi holatini baholash;

mehnat bozori, bandlik va tarkibiy o'zgarishlar hamda kambag'allikni qisqarishi bilan aholi farovonligi darajasini tahlil qilish;

SAM (Successive Approximation Model) asosida uy xo'jaliklarining daromadlari va iste'mol xarajatlari multiplikatorlarini modellashtirish;

kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonlikni oshirish bo'yicha uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

kambag'allikni bartaraf etishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmini takomillashtirish.

kambag'allikni qisqartirish asosida aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi aholining kambag'al guruhi va ularning daromadlari olingan.

Tadqiqotning predmetini aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirishning omili sifatida kambag'allikni qisqartirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, tizimli va mantiqiy tahlil, induksiya i deduksiya, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, statistik guruhlash, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, tanlanma kuzatish, modellashtirish, prognozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uy xo'jaliklari daromadlariga multiplikativ samarani baholash yondashuvi taklif etilga SAM modeliga ko'ra oziq-ovqat mahsulotlarini rag'batlantirish eng yuqori multiplikativ samaraga ega bo'lishi bilan bir qatorda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qismini qo'llab-quvvatlash, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga ko'ra to'laqonli bo'lishi, boshqa tomondan esa kambag'allik kvintili daromadlari o'sishini maqsadli ta'minlashga xizmat qilishi negizida takomillashtirilgan;

kambag'allikni uy xo'jaliklarining daromad va xarajatlari kabi sof iqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan baholash yondashuvini kambag'allikning Kvazi-Leyden chizig'i (kvazi-LPL)ga ko'ra moddiy-moliyaviy ahvoli bilan bir qatorda ijtimoiy farovonlikka oid holatlarni ham hisobga olgan holda kompleks baholashning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi asoslangan;

model ratsion tarkibiga yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ko'ra hududlarning mahalliy ovqatlanish xususiyatlari, nisbiy xarajatlar, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarkibining sifat darajasiga asosan takomillashtirilgan;

kambag'allik chegarasi va milliy yashash darajasiga yondashuv oziq-ovqat va noziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan holatlar (tarkib, xarajat va b.) tarkibida diyetani e'tiborga olishga ko'ra takomillashtirilib, bunga ko'ra diyetani qiymatini belgilashning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

“subyektiv kambag'allik chegarasi” usullari tarkibidagi kambag'allik va

tengsizlikni baholashning Leyden kambag'allik chegarasi (LPL) nazariy-uslubiy jihatdan "obyektiv kambag'allik chegarasi" usullari tarkibiga kiritilgan holda Kvazi-Leyden qashshoqlik chegarasi (kvazi-LPL) sifatida modifikatsiyalashtirilib, uy xo'jaliklari kambag'allik chegarasini "subyektiv" munosabat va "obyektiv" holatlarga ko'ra baholashning komplekslik darajasini oshirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aholi bandligi va farovonligini oshirish bo'yicha mavjud konsepsiya, yondashuv va uslubiyatlar tahlilga va muammoning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra "subyektiv iqtisodiy keskinlik" va "subyektiv daromadlar qashshoqlik darajasi" kabi kambag'allik chegarasi ko'rsatkichlari taklif qilingan;

kam ta'minlangan uy xo'jaliklari xususiyatlari va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga ko'ra qashshoqlikni qisqartirish strategiyasini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan va konseptual sxema taklif etilgan;

hududlarning sharoiti va salohiyatiga ko'ra ular besh kategoriyaga ajratilib, ular o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda tadbirkorlarga subsidiyalar, kreditlar va kompensatsiyalar berish yuzasidan tavsiyalar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va tegishli tashkilotlarning statistik ma'lumotlari va hisobotlaridan olingani hamda xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar inson kapitalini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asosini boyitishga hamda uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar inson kapitalini rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish, investitsion resurslardan maqsadli foydalanish va barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari majmuyini ishlab chiqishga hamda kadrlar tayyorlash jarayoni va "Mehnat iqtisodiyoti", "Mehnat bozori" kabi darsliklar va o'quv adabiyotlarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kambag'allikni qisqartirish asosida aholi bandligi va farovonlik darajasini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

asoslangan SAM modeliga ko'ra uy xo'jaliklari daromadlariga multiplikativ samarani baholash yondashuvi oziq-ovqat mahsulotlarini rag'batlantirish eng yuqori multiplikativ samaraga ega bo'lishi bilan bir qatorda aholining ijtimoiy jihatdan nochor qismini qo'llab-quvvatlash, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga ko'ra to'laqonli bo'lishi, boshqa tomondan esa kambag'allik

kvintili daromadlariga multiplikativ samarani baholashning takomillashtirilgan yondashuvi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarori 1-ilovasi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi 2-bo‘lim 6-bandi “Davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning daromadini oshirishga qaratilgan xarajatlarni tahlil qilish”da tegishli hisob-kitoblarni ishlab chiqishda foydalanilmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 30-oktabrdagi 01/00-03/26-10951-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklif kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir ko‘rsatuvchi parametrlar tarkibini kengayishiga ko‘ra iqtisodiyot tarmoqlarini (ishlab chiqarish) mutanosib rag‘batlantirish, kambag‘allikni qisqartirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

kambag‘allikni uy xo‘jaliklarining daromad va xarajatlari kabi sof iqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslangan baholash yondashuvini kambag‘allikning Kvazi-Leyden chizig‘i (kvazi-LPL)ga ko‘ra moddiy-moliyaviy ahvoli bilan bir qatorda ijtimoiy farovonlikka oid holatlarni ham hisobga olgan holda kompleks baholashning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi bo‘yicha “Oilaning mehnatga layoqatli a‘zolaridan bandlikni talab qilgan holda ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ro‘yxatini shakllantirish”da foydalanilmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 30-oktabrdagi 01/00-03/26-10951-sonli ma’lumotnomasi). Taklif kambag‘allik darajasini yaxlit va kompleks baholash darajasini oshirishga ko‘ra kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari va dasturlari samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ko‘ra hududlarning mahalliy ovqatlanish xususiyatlari, nisbiy xarajatlar, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarkibining sifat darajasiga ko‘ra model ratsion tarkibiga bo‘lgan takomillashgan yondashuv bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-330-son qarori 1-ilovasi “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar rejasi bo‘yicha davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning daromadini oshirishga qaratilgan xarajatlarni tahlil qilishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 30-oktabrdagi 01/00-03/26-10951-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur yondashuv oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqishda ular sifat tarkibini yaxshilashga, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ko‘ra ishlab chiqariladigan rivojlanish dasturlarining samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

kambag‘allik chegarasi va milliy yashash darajasiga yondashuv oziq-ovqat va

nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan holatlar (tarkib, xarajat va b.) tarkibida diyetani e'tiborga olishga ko'ra takomillashtirilib, bunga ko'ra diyeta qiymatini belgilashning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to'g'risida"gi PF-143-son Farmoni ijrosini ta'minlash, xususan, davlat tomonidan aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda ular daromadini oshirishga qaratilgan xarajatlarni chuqur tahlil qilishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 30-oktabrdagi 01/00-03/26-10951-sonli ma'lumotnomasi). Taklif kambag'allik holatini baholashning aniqlik darajasi va unga ko'ra chora-tadbirlar natijadorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

"subyektiv kambag'allik chegarasi" usullari tarkibidagi kambag'allik va tengsizlikni baholashning Leyden kambag'allik chegarasi (LPL) nazariy-uslubiy jihatdan "obyektiv kambag'allik chegarasi" usullari tarkibiga kiritilgan holda Kvazi-Leyden kambag'allik chegarasi (kvazi-LPL) sifatida modifikatsiyalashtirilib, uy xo'jaliklari kambag'allik chegarasini "subyektiv" munosabat va "obyektiv" holatlarga ko'ra baholashning komplekslik darajasini oshirishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-son Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida kambag'al oilalarga va eng og'ir ahvoldagi mahallalarga birlashtirilgan tashkilotlar rahbariyatining faoliyati samaradorligini monitoring qilish metodikasini ishlab chiqishda keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 30-oktabrdagi 01/00-03/26-10951-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif kambag'allik va hayot sifati qiymatini baholashda lokal omillardan to'laroq foydalanish, ijtimoiy xizmatlar va mintaqaviy iste'mol xususiyatlarini chuqurroq e'tiborga olishga ko'ra maqsadli dasturlar samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 16 ta, shu jumladan, 8 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 12 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 11 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining umumiy hajmi 216 betdan iborat.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va mavzusi ifodalangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, shuningdek nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kambag‘allikni aniqlash bo‘yicha nazariy va konseptual yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida kambag‘allikni aniqlashning zamonaviy nazariy konsepsiyalari, mutlaq kambag‘allik chizig‘ini belgilash nazariyasi va amaliyotining uslubiy jihatlari o‘rganilgan, kambag‘allik chegarasini aniqlashning subyektiv va obyektiv konsepsiyalari o‘rganilgan, kambag‘allik chizig‘ini tasniflash va belgilashga yangicha yondashuv taklif etilgan.

Kambag‘allik va farovonlik tushunchasining mohiyatini iqtisodiy jihatdan taqqoslanadigan jihatdan tushunishga nafaqat turli xil tovarlar va xizmatlarni sotib olish va ulardan foydalanish imkoniyatiga, balki aksincha, qarama-qarshi prinsipga asoslanib yondashish mumkin. Yashash va ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning yetishmasligi odatda kambag‘allik deb ta’riflanadi. Demak, aslida kambag‘allik – farovonlikni inkor etish hisoblanadi. Farovonlik aholini yashash va rivojlanish uchun zarur bo‘lgan tovarlar bilan ta’minlashda, shuningdek, hayot kechirish sohalariga nisbatan odamlarning ehtiyojlarini qondirish darajasida namoyon bo‘ladi. Aholining farovonligi nafaqat moddiy elementlarni (tovarlarning mavjudligi va holati), ijtimoiy va psixologik xarakterdagi elementlarni (jamoat hayotida ishtirok etish, o‘z-o‘zini hurmat qilish, ishning xarakteri va ishdan qoniqish), balki kanallarni ham o‘z ichiga olib, ular orqali imtiyozlar yaratiladi va odamlarga yetkaziladi, bu odamlarga ne‘matlarga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Kambag‘allik darajasi va daromadlar tengsizligining boshqa ko‘rsatkichlari ajratish qiyin bo‘lgan ko‘plab omillarning natijasidir. Bunday tahlilda tizimli nazariy asos kamdan-kam qo‘llaniladi, ammo u kambag‘allikning asosiy mexanizmlarini tushunish, shuningdek uni aniqlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlarni tushunish uchun foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu tuzilma 1-rasmda keltirilgan, ammo u ko‘proq kambag‘allikning har bir determinanti o‘rtasida paydo bo‘ladigan aloqalarga qaratilgan, boshqa tadqiqotlarda esa asosiy e’tibor tengsizlikning turli ko‘rsatkichlari o‘rtasida almashishda muhim bo‘lgan omillarga qaratilgan (masalan, ishlaydigan aholining daromadlaridagi tengsizlik, butun aholining daromadlaridagi tengsizlik, qayta taqsimlashdan oldin va keyin uy xo‘jaliklarining daromadlaridagi tengsizlik va h.k.).

Ilmiy adabiyotlar odatda bozor tengsizligini, ya’ni soliqqa tortishdan oldin va o‘tkazmalardan oldin hamda bir martalik daromadlarning tengsizligini ajratib turadi. 1-rasmda ko‘rsatilgandek, bir martalik daromaddagi “yakuniy” tengsizlik oxir-oqibat bozor kuchlari harakati va ushbu bozor daromadlarini davlat tomonidan qayta taqsimlash natijasida yuzaga keladigan tengsizlik natijasidir.




1-rasm. Kambag'allik determinantlarining nazariy asoslari¹⁹.

Tadqiqotda o'zlarini kambag'al deb hisoblaydigan aholining ulushi kabi subyektiv kambag'allik darajasi ko'rib chiqilgan. Boshqa tomondan, kiritilgan o'zgaruvchilar subyektiv kambag'allikni o'lchashning bilvosita (proksi) va "obyektivlashtirilgan" usullaridan foydalanishga imkon beradi.

Biz kambag'allik nazariyasiga ikkala yondashuvni ko'rib chiqdik va quyidagi ko'rsatkichlarni taklif etdik: mavjud bo'lish qobiliyatini subyektiv baholash masalasiga asoslangan subyektiv iqtisodiy keskinlik ko'rsatkichi, mavjud bo'lish uchun minimal daromad savolidan foydalangan holda subyektiv daromad kambag'allik darajasining ko'rsatkichi – MIQ deb ataladigan kambag'allik darajasi (minimal daromad darajasi) va ikkita ko'rsatkich obyektiv va subyektiv deb atalmish kambag'allik chegarasi hisoblanadi.

Kvazi-Leyden kambag'allik chizig'i (kvazi-LPL) biz tomonidan kambag'allik va tengsizlikni o'lchash uchun taklif qilingan dastlabki Leyden kambag'allik chizig'i (LPL)ning modifikatsiyasi hisoblanadi.

¹⁹ Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. Milliy kambag'allik chegarasi va milliy yashash darajasini baholash uchun qo'llaniladigan metodologiyaning sxemasi ²⁰.

Ilmiy adabiyotlarda kambag'allik va yashash minimumi, shuningdek, milliy kambag'allik chegaralarini va yashash minimumini o'lchash va baholash bo'yicha umumiy qarashlar mavjud. 2-rasmda ushbu tadqiqotda milliy kambag'allik chegarasi va yashash minimumi milliy darajasini o'lchash uchun qo'llanilgan metodologiya sxematik tarzda ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, model ratsionini, turli xil oziq-ovqat xarajatlarini, nooziq-ovqat xarajatlarini va to'liq ish kuni soatlari sonini aniqlash rivojlanishiga bog'liq.

²⁰ Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Milliy yashash minimumi darajasi milliy kambag'allik chegarasini to'liq ish kunida ishlaydigan ishchilar soniga bo'lish yo'li bilan baholanadi. Ushbu yondashuvning asosiy muammosi shundaki, ishlatilgan o'rtacha daromad foizi to'g'risida kelishmovchiliklar mavjud va shu sababli turli foizlardan foydalangan holda bir nechta kambag'allik chegaralari haqida xabar berish odatiy holdir. Bundan tashqari, nisbiy kambag'allik chegarasidan foydalanish kambag'allikni kamaytirishni muayyan darajada qiyinlashtiradi.

Dissertatsiyaning **“Kambag'allik va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq etishning uslubiy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganilgan, ishsizlik va beqaror bandlik kambag'allikning asosiy omili ekanligi aniqlangan, aholi farovonligini shakllantirish nazariyasiga uslubiy yondashuvlar taklif etilgan.

Hozirgi vaqtda kambag'allikning shakllangan konsepsiyalari kambag'allikni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy omillar, motivatsion munosabat va gumanitar jihatlar (shu jumladan, jismoniy omon qolish arafasidagi kambag'allikni baholash) nuqtayi nazaridan o'lchash va baholash imkoniyatini beradi (1-jadval).

1-jadval.


Kambag'allik konsepsiyalarining mazmuni²¹

Konsepsiyalar	Tarkib	Elatma
Monetaristik		
Mutlaq kambag'allik	Konsepsiya fuqarolarning ma'lum bir toifasini kambag'al deb tasniflashga imkon beradigan chegarani baholashga asoslangan. Ushbu konsepsiya doirasidagi kambag'allikni baholash pul bilan o'lchanadigan kambag'allik chizig'i bilan bog'liq.	Rivojlangan mamlakatlarning aksariyati, shu jumladan O'zbekiston xalqaro tashkilotlar (BMT, Jahon banki, Yevrostat, Islom taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki) tomonidan qo'llaniladi.
Nisbiy kambag'allik	Konsepsiya respublika aholisining aksariyat qismiga nisbatan moddiy ta'minoti past bo'lgan aholining kambag'al toifalarini aniqlashga asoslanadi, bunda kambag'allik chegarasini baholash asos bo'lib xizmat qiladi, bu odatda mamlakat aholisining o'rtacha yoki medianli daromadiga foiz sifatida belgilanadi.	Aholining o'rtacha daromadlarining o'zgarishiga qarab, kambag'allik chegarasi ham o'zgaradi deb taxmin qilish mumkin. Kambag'allik chegarasi avtomatik ravishda o'zgartiriladi. Konsepsiya kambag'allikni baholashning aholi daromadlarini tabaqalashtirish darajasiga bog'liqligini aytishga imkon beradi.
Nomonetar yoki ijtimoiy-iqtisodiy o'zini o'zi identifikatsiya qilish		
Subyektiv kambag'allik konsepsiyasi	Ushbu konsepsiya jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish va munosib turmush darajasini ta'minlash imkoniyatlari nuqtai nazaridan baholashdan iborat.	Konsepsiya tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan ijtimoiy omillar, motivatsion munosabatlarni emas, balki iqtisodiy jihatdan baholashga imkon beradi.
Mahrumlik konsepsiyasi	Konsepsiya doirasida kambag'allarga umumiy qabul qilingan iste'mol standartlariga javob bermaydigan, ma'lum bir tovar va xizmatlar to'plamidan foydalanish imkoniga ega bo'lmagan shaxslar kiradi.	Ushbu yondashuv gumanitar muammolarning chuqurligini aniqlashga imkon beradi, chunki ushbu konsepsiya zarur tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilmaslik (va/yoki iste'mol qilmaslik) ni o'rganadi.

²¹ Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqotda boshlang'ich nuqta sifatida zaiflik mezoniga asoslangan o'rta sinfni aniqlashda konseptual jihatdan jozibali yondashuvdan foydalanilgan. Bizning fikrimizcha, past va o'rta daromadli mamlakatlar sharoitida o'rta sinfning har qanday muhokamasini kambag'allik dinamikasi muhokamasidan ajratib bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, kambag'allikka qarshi kurashish uchun kambag'al uy xo'jaliklarining xususiyatlaridan, mavjud to'siqlar va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan, shuningdek, makroiqtisodiy va mikro darajadagi siyosat imkoniyatlaridan kelib chiqish kerak. O'zbekistonda kambag'allikka barham berish strategiyasining asosiy yo'nalishlarining konseptual sxemasi 3-rasmda keltirilgan.




3-rasm. O'zbekistonda kambag'allikka barham berish strategiyasining asosiy yo'nalishlari konsepsiyasi²².

Tadqiqot ma'lumotlari natijalarning ishonchligini hisobga olgan holda aralashuvning har bir toifasi uchun umumlashtirildi (masalan, ish o'rinlarini yaratish, ish haqiga qo'shimcha haq miqdori, mehnat faoliyati tugagandan keyin tashabbuslar va boshqalar). Ikkinchisi dalillarning miqdori va sifati, manbaning

²² Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

milliy siyosati konteksti va foydalanilgan natija ko'rsatkichlarining dolzarbligiga qarab baholandi. Tahlilda aralashuv va kambag'allikni kamaytirish o'rtasidagi eng kuchli (va eng zaif) bog'liqliklarni, shuningdek, dalillar bazasidagi bo'shliqlarni aniqlash uchun dalillardagi kamchiliklar aniqlandi.

Shaxsiy farovonlikni oshirish har qanday individual faoliyatning rivojlanishini rag'batlantiradi. Inson ijtimoiy mavjudot bo'lib, o'ziga o'xshaganlar bilan muloqot qilmasdan yolg'iz yashay olmaydi. Shuning uchun uning individual farovonligi ko'p jihatdan o'zi bevosita ta'sir qila olmaydigan omillarga bog'liq, ammo uning sinergetik ta'siri ushbu shartlar va omillarga, masalan, iqtisodiy o'sishga bog'liq. Iqtisodiy o'sish davrida inson o'z faoliyatidan maksimal farovonlik va maksimal qoniqish oladi, ammo agar davlatda beqarorlik mavjud bo'lsa, u holda shaxs o'zining farovonlik darajasini pasaytiradi. Fuqarolarning individual farovonligi, davlat tomonidan tartibga solish, iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotning siklik tabiati bilan birgalikda, o'zaro aloqada sinergiya ta'sirini shakllantiradigan jamiyat farovonligiga bevosita ta'sir qiladi (4-rasm).



4-rasm. Shaxsiy farovonlikning jamiyat farovonligi bilan aloqasi va sinergiya samarasining paydo bo'lishi²³.

Farovonlik o'zaro ta'sir qiluvchi juda ko'p omillarning o'zaro bog'liqligi natijasidir, sinergiya samarasi ta'sirining shakllanishiga olib keladigan kombinatsiya hosil bo'ladi. Bizning fikrimizcha, uni faqat darajalar bo'yicha farovonlik nuqtai nazaridan o'rganish mumkin.

Darajali yondashuv metodologiyasi iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotning siklik tabiati va har bir alohida darajada ham, umuman hukumat ta'siri ostida farovonlikni


²³ Tadqiqot asosida muallif tomonidan tuzilgan.

tahlil qilishga imkon beradi. Ta'sirni aniqlashda va barcha darajalarni birlashtirganda, turli xil omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, ma'lum bir ijtimoiy shakllanish uchun ma'lum vaqt parametrlarida jamiyat farovonligi darajasini baholash mumkin, chunki ular to'laqonli ish jarayoni, hayoti, odamlarning dam olishi va takror yaratish uchun iqtisodiy sharoit yaratadi. Aynan sinergiya samarasi individual farovonlikning oshishiga olib keladi va shaxsni yangi, "ilgari mavjud bo'lgan muvozanatdan farqli" holatga keltiradi, bu esa keyinchalik o'sish va ijtimoiy farovonlikni rag'batlantiradi.

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston mehnat bozorida kambag'allik darajasi, profili va tarkibini tahlil qilish**" deb nomlangan uchinchi bobida mehnat bozorining hozirgi holati va uning kambag'allik darajasi va profiliga ta'siri tahlili keltirilgan, kambag'allikni kamaytirish omili sifatida aholining turmush darajasi o'rganilgan.

Daromad darajasi o'rtadan past bo'lgan davlatlar uchun qabul qilingan 3,2 AQSh dollari chegarasiga asosan hisoblangan kambag'allik darajasi 2017 yilda deyarli 11,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 5,8% ga tushgan (5-rasm). Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, kambag'allikning eng og'ir shakllari 2018-yilga kelib deyarli bartaraf etilgan. Shu bilan birga, daromad darajasi o'rtadan past bo'lgan davlatlar uchun mos chegaraga asosan hisoblangan kambag'allik darajasi 2018-yilda 9,5% ni tashkil etgan.

Monetar bo'lmagan farovonlik ko'rsatkichlari so'nggi o'n yillik davomida barqaror yaxshilanishni ko'rsatmoqda. Kutilgan umr davomiyligi 2017-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda 5 yildan ortiqqa oshgan bo'lib, bu, jumladan, ona o'limi darajasining 39,0% ga va chaqaloqlar o'limi darajasining 17,0% ga pasayishi bilan bog'liq. Shu davrda xavfsiz ichimlik suvi bilan ta'minlangan xo'jaliklar ulushi 67,0% dan 87,0% ga ko'paygan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, asosiy sanitariya-gigiyena sharoitlariga kirish imkoniyati so'nggi o'n yildan ortiq vaqt mobaynida umumiy bo'lib qolmoqda.




5-rasm. Daromadi past va kambag'al aholi dinamikasi²⁴.

²⁴ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mutaxassislarning fikricha, 2022-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasi o'tgan yilga nisbatan qariyb 3% ga kamaydi va 14% ni tashkil etdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kambag'allikning eng katta kamayishi Sirdaryo, Toshkent, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida kuzatilgan. Shu bilan birga, Navoiy, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida kambag'allikni qisqartirish ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangani yo'q.

Rasmiy so'rovnoma ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha daromad 2017-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda yiliga taxminan 1,4% ga o'sdi, inflyatsiyani hisobga olgan holda aholi jon boshiga YaIMning yillik o'sishi esa 4,8% ni tashkil etgan (6-rasm). Eng kambag'al 20,0% aholi orasida daromadlar shu davrda oddiy sur'atlarga qaraganda ikki baravar oshdi (yiliga 0,74%).




6-rasm. Uy xo'jaliklarining real daromadlarining o'sish dinamikasi ²⁵.

Uzoq muddatli daromad va iste'mol tengsizligi o'rtacha va barqaror edi. Uy xo'jaliklarining budjeti bo'yicha yangi milliy so'rovi natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda daromad uchun Djini koeffitsiyenti 0,360, aholi jon boshiga iste'mol uchun Djini koeffitsiyenti 0,340 ni tashkil etdi. Bu shuni ko'rsatadiki, tengsizlik oxirgi marta 0.350 da taqqoslanadigan so'rovda o'lchangan tadqiqot davridan boshlab deyarli o'zgarmagan.

O'zbekiston aholi asosiy daromadlarini mehnat faoliyatidan olgan, garchi ularning ulushi 65% dan 61,6% gacha kamaygan bo'lsa ham. O'tkazmalar deyarli 30% ni, mulkdan olingan daromad 2,3% ni va o'z iste'moli uchun xizmatlar ishlab chiqarishdan olingan daromad 6,3% ni tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan aholining umumiy daromadlari tarkibidagi pul o'tkazmalari ulushi 10% ga oshdi — 26,2% dan 29,8% gacha. O'tkazmalardan olinadigan daromadning deyarli uchdan ikki qismi transchegaraviy o'tkazmalarga, atigi 35,4% esa ijtimoiy o'tkazmalarga to'g'ri keldi (7-rasm).

²⁵ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



7-rasm. 2024-yilda hududlar bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibi, (jami umumiy daromad tarkibida, %)²⁶.

Tadqiqotda Buxoro viloyati misolida iqtisodiyotning o'sishi va uning tarmoqlari rivojlanishining ta'siri, shuningdek, daromadlar va iste'mol tengsizligi bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosat choralari o'rganilgan. Buxoro viloyati iqtisodiyotining uchta jamlangan tarmoqlarida (sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish) ishlab chiqarish hajmining o'sishi hamda daromad va iste'molning o'sishi o'rtasidagi kuchli bog'liqlik gipotezasini sinash uchun SAM modelidan foydalanilgan.

SAM (Successive Approximation Model) bu ma'lum bir vaqtdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami bo'lib, mikroiqtisodiy ta'sirlarning makroiqtisodiy ta'sirini baholash uchun ishlatiladi (Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tomonidan dissertant nazorati ostida o'tkazilgan Buxoro viloyatidagi uy xo'jaliklari budjetlari so'rovlariga ko'ra). Shunday qilib, SAM yondashuvining yangiligi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ma'lumotlarni yagona tizimga integratsiyalashuvi hisoblanadi (2-jadval).


²⁶ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

SAM modelning matritsa koeffitsiyentlari va vektorlari

Счета	1a-PA	1b – CM	2-FP	3a-HH&OI	3b ... 5 EXO	Daromad
1a-PA		$A_{1a,1b}=T_{1a,1b}/Y_{1b}$			X1a	Y1a
1b – CM	$A_{1b,1a}=T_{1b,1a}/Y_{1a}$			$A_{1b,3a}=T_{1b,3a}/Y_{3a}$	X1b	Y1b
2-FP	$A_{2,1a}=T_{2,1a}/Y_{1a}$				X2	Y2
3a-HH&OI			$A_{3a,2}=T_{3a,2}/Y_2$	$A_{3a,3a}=T_{3a,3a}/Y_{3a}$		
3b...5 Leaks	$B_{1a}=L_{1a}/Y_{1a}$	$B_{1b}=L_{1b}/Y_{1b}$	$B_2=L_2/Y_2$	$B_{3a}=L_{3a}/Y_{3a}$		
Расход	$E_{1a}=Y_{1a}$	$E_{1b}=Y_{1b}$	$E_2=Y_2$	$E_3=Y_{3a}$		

Eslatma: $Y(t)=A Y(t) + X(t)=(I - A)^{-1} X(t)=M_a X(t)$, бу ерда t – давр; Y – endogen daromad vektori; X – ekzogen xarajatlar vektori; A – endogen o'zgaruvchilar uchun o'rtacha iste'mol qilish moyilligi matritsasi.

Buxoro viloyatidagi multiplikatorlarning umumiy tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, o'rtacha multiplikator samarasi 2,33 ni tashkil etadi, bu esa iqtisodiyotga 1 million so'm (masalan, davlat xarajatlari yoki investitsiyalarini ko'paytirish hisobiga) barcha tarmoqlar ishlab chiqarish hajmini o'rtacha 2,33 million so'mga oshiradi (8-rasm).



8-rasm. Iqtisodiyot sektorlari o'sishining uy xo'jaliklari daromadlariga ta'siri²⁷.


9-rasmda M_{31} uy xo'jaliklari daromadlarining o'sishi submatritsasi ko'rsatilgan bo'lib, iqtisodiyot sektorga moliyaviy investitsiyalarning bir birligi ta'siri ostida uy xo'jaliklarining har bir kvintilidagi daromadlarning o'zgarishini ko'rsatadi. Har bir ustundagi miqdor iqtisodiyot tarmoqlari o'sishining har bir kvintilning daromad o'sishiga ta'sirini aks ettiradi.

Iqtisodiyotga 1 million so'm investitsiya kiritish barcha uy xo'jaliklarining daromadlarini 0,67 million so'mga oshiradi (1,99/3). Shu bilan birga, V-kvantil eng katta multiplikator ta'siriga ega (1,08), ya'ni Buxoro viloyatining G'ijduvon, Kogon, Romitan va Shofirkon tumanlari aholisining eng boy qismi ishlab chiqarishni rag'batlantirishdan eng katta foyda oladi. Shunisi qiziqki, bu eng boy V-kvantil oziq-

²⁷ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi HMS ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ovqat (0,39) va xizmatlar (0,38) ishlab chiqaradigan sohalarda ishlab chiqarishning o‘shidan eng katta daromad oladi.

M₃₃ matritsasi uy daromadlarining ekzogen o‘shining ushbu uy kvintilining daromadlariga va boshqa kvintillarning daromadlariga ta‘sirini aks ettiradi (9-rasm). Buxoro viloyatining G‘ijduvon, Kogon, Romitan va Shofirkon tumanlaridagi barcha uy xo‘jaliklari daromadlari 1 birlikka (mln.so‘mga) ekzogen o‘shisi bilan V-kvintilning daromadlari 2,57 birlikka (million so‘mga) oshadi, 1-va 2-guruhlarining daromadlari esa birmuncha (mos ravishda 1002 va 1,19 birlikka) oshadi, ular pul o‘tkazmalari shaklida yordamga muhtoj bo‘lgan aholi hisoblanadi.




9-rasm. Uy xo‘jaliklari daromadlari o‘shining uy xo‘jaliklari kvintil daromadlariga ta‘siri²⁸.

